



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 56 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdam o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	



IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI

Teshayev Sayimbek Anvarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

3-bosqich talabasi

E-mail: s.teshayev@tsue.uz

Ilmiy rahbar:

Tashmuxamedova Yayra Atxamovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrası

katta o'qituvchisi, PhD.

E-mail: yayrusha@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston elektron tijorat bozori va milliy to'lov tizimlarining iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot 2020–2023-yillardagi elektron to'lovlar hajmi, elektron hamyonlar soni va chakana savdodagi ulush asosida amalga oshirilib, milliy to'lov tizimlarining modernizatsiyasi, “Humo” va “Uzcard” integratsiyasi hamda mobil to'lov ilovalari elektron tijoratning barqaror o'sishiga qanday hissa qo'shganligi ko'rsatildi. Shuningdek, tizim samaradorligini cheklovchi kiberxavfsizlik tahdidlari, xizmatlarning diversifikatsiyasi va xalqaro integratsiya darajasi kabi muammolar ham muhokama qilindi. Tadqiqot natijalari milliy to'lov tizimlarini rivojlantirish va elektron tijorat hajmini kengaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: milliy to'lov tizimi, elektron tijorat, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy barqarorlik, raqamli iqtisodiyot, elektron to'lovlar.

Abstract: This article examines the role of Uzbekistan's national payment systems in ensuring economic security and the development of e-commerce. The study is based on data from 2020–2023 on the volume of electronic payments, the number of e-wallets, and their share in retail trade, highlighting how the modernization of national payment systems, the integration of “Humo” and “Uzcard,” and mobile payment applications have contributed to the sustainable growth of e-commerce. The study also addresses factors limiting system efficiency, including cybersecurity threats, low service diversification, and insufficient international integration. The findings provide practical recommendations for enhancing payment systems and expanding e-commerce.

Key words: national payment system, e-commerce, economic security, financial stability, digital economy, electronic payments.

Аннотация: В статье анализируется роль национальных платежных систем Узбекистана в обеспечении экономической безопасности и развитие электронной коммерции. Исследование основано на данных за 2020–2023 годы о объеме электронных платежей, количестве электронных кошельков и доле в розничной торговле, показывая влияние модернизации национальных платежных систем, интеграции “Humo” и “Uzcard”, а также мобильных платежных приложений на устойчивый рост электронной коммерции. Также рассматриваются ограничения эффективности системы, включая угрозы кибербезопасности, низкую диверсификацию услуг и недостаточный уровень международной интеграции. Результаты исследования позволяют формировать практические рекомендации по развитию платежных систем и расширению электронной коммерции.

Ключевые слова: национальная платёжная система, электронная коммерция, экономическая безопасность, финансовая стабильность, цифровая экономика, электронные платежи.



KIRISH

Raqamli transformatsiya va elektron tijoratning jadal rivojlanishi O'zbekiston iqtisodiyotida milliy to'lov tizimlarining strategik ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi. Elektron to'lovlar nafaqat savdo operatsiyalarini tezlashtirish, balki moliyaviy muomalalarni rasmiylashtirish, soliq tushumlarini ko'paytirish, noqonuniy pul aylanmasini qisqartirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi va global raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida elektron tijorat hajmining keskin o'sishi milliy to'lov tizimlarining ishonchligi, uzluksiz ishlashi va samaradorligi iqtisodiy barqarorlikning asosiy shartlaridan biriga aylanganini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda milliy to'lov tizimlarini modernizatsiya qilish va elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qator strategik huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida" O'RQ-578-son qonuni [1] qabul qilinib, unda elektron tijoratda milliy to'lov tizimlarini mustahkamlash, moliyaviy operatsiyalarni raqamlashtirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha strategik vazifalar belgilangan. Shu asosda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-fevraldagi "Elektron to'lov tizimlari xizmatlaridan foydalanishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 117-sonli qarori [2] tasdiqlanib, unda milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, pul oqimlarini samarali boshqarish va iqtisodiy xavfsizlikni oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar belgilangan.

Shu bilan birga, O'zbekiston bozorida elektron to'lov xizmatlari jadal rivojlanayotgan bo'lsada, ayrim tizimli muammolar hali hamon dolzarbligini saqlab qolmoqda. Xususan, kiberxavfsizlikka doir tahdidlarning ortib borayotgani moliyaviy firibgarlik, identifikatsiya buzilishlari va shaxsiy ma'lumotlar himoyasining yetarli darajada ta'minlanmaganligi bilan bog'liq xavflarni kuchaytirmoqda. Hududlar bo'yicha elektron to'lov infratuzilmasining nomutanosib rivojlanishi, aholi va tadbirkorlik subyektlarida xavfsiz elektron to'lov madaniyatining to'liq shakllanmagani, shuningdek, pul oqimlarini nazorat qilishdagi qiyinchiliklar mavjud tizimning samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur omillar milliy to'lov tizimlarining iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi rolini chuqur ilmiy asosda o'rganish zarurligini taqozo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy to'lov tizimlarining elektron tijoratdagi o'rni va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi xalqaro va milliy miqyosdagi tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xalqaro amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, raqamli to'lov tizimlarining samarali ishlashi nafaqat moliyaviy operatsiyalarni tezlashtiradi va ularning qulayligini oshiradi, balki iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olimlardan Luigi Benfratelloning "The Digital Payment Industry"[3] nomli dissertatsiyasida raqamli to'lov tizimlari va to'lov industriyasining texnologik rivoji, bozor tuzilmasi hamda iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini tahlil qilgan, Umit Bozokluning "Elektron tijoratda elektron to'lov tizimlari" [4] nomli maqolasida E-commerce kontekstida elektron to'lovlarning texnologik variantlari, xavfsizlik va operatsiyalar — milliy to'lov tizimini e-commerce bilan integratsiyalashuvini nazariy jihatdan o'rganib chiqqan. R.A. Kasri [5] "Digital payment and banking stability in emerging economy" maqolasida raqamli to'lovlar va bank barqarorligiga ta'sirni milliy darajada tahlil qilgan. Bui Khan [6] "A Compendious Study of Online Payment Systems" deb nomlangan tadqiqoti ishida Elektron to'lovlarning texnik va xavfsizlik jihatlari, to'lov turlari, tendensiyalar va amaliy muammolarni o'rgangan.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan M.A.Markov, S.Yu.Perseva, V.Yu.Dalbayeva, N.P.Lkova, Ye.Shepetova, A.I.Chaloyan, A.A.Zyuzinalarning ilmiy tadqiqotlari va maqolalari o'rganilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan J. Valiyev O'zbekistonda milliy to'lov tizimlarining infratuzilmasi, xavfsizlik mexanizmlari va huquqiy asoslarini tahlil qilib, elektron tijorat operatsiyalari orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashning dolzarbligini ta'kidlagan. [7] M. Kenjaev milliy to'lov tizimining tashkil etilishi, banklararo operatsiyalar va xavfsizlik choralari orqali elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rgangan. [8] O.B.Davronov O'zbekistonda elektron tijoratda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va huquqiy tartibga solish masalalari, shuningdek xalqaro tajribalar tahlil qilgan. [9] S.Toxirov esa, raqamli to'lov tizimlarida yuzaga keladigan kiber xatarlar va ularni kamaytirish uchun himoya mexanizmlari (shifrlash, autentifikatsiya va boshqalar) haqida o'z qarashlarini bayon etgan. [10]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda milliy to'lov tizimlarining elektron tijoratdagi o'rni va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy tahlil, statistik va komparativ tahlil, shuningdek ilmiy adabiyotlar sharhi usullari qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Markaziy bank va KPMG hisobotlari asosida milliy to'lov tizimlari



infratuzilmasi va elektron tijorat hajmi tahlil qilindi, shuningdek Markaziy Osiyo mamlakatlari va xalqaro amaliyot bilan solishtirildi.

Statistik tahlil yordamida 2020–2023-yillardagi elektron tijorat hajmi, elektron hamyonlar soni va chakana savdodagi ulushlar o'rganildi. Ma'lumotlar trend tahlili va proporsional o'sish hisob-kitoblari orqali vizual tarzda taqdim etildi. Shu bilan birga, xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari asosida milliy to'lov tizimlarining iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashdagi samaradorligi baholandi. Bu metodologiya tadqiqotga interdisiplinar yondashuvni ta'minlab, iqtisodiyot, moliya, axborot texnologiyalari va huquqiy normalarni birlashtirishga imkon yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar va elektron to'lov tizimlarining keng joriy etilishi mamlakatda elektron tijorat faoliyatining barqaror rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarni o'rganish natijasida aniqlanishicha, so'nggi yillarda onlayn savdo hajmi, to'lov infratuzilmasi va elektron hamyonlar soni izchil oshib bormoqda. Jumladan, 2023-yilda elektron to'lovlarning 65 foizini 18–35 yosh oralig'idagi foydalanuvchilar amalga oshirgan. Bu esa milliy to'lov tizimlari rivojida yoshlar segmentining yetakchi drayverga aylanganini ko'rsatadi. Klynveld Peat Marwick Goerdeler (KPMG) Uzbekistan tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan "E-commerce in Uzbekistan" hisobotiga ko'ra, 2022-yil yakunida O'zbekiston elektron tijorat bozori hajmi 311 million AQSh dollariga yetgan [11] bo'lib, bu 2020-yilga nisbatan qariyb ikki barobar o'sishni anglatadi. Statistik taqqoslashlar shuni ko'rsatadiki, mazkur ko'rsatkich Qozog'istonning 1,1 milliard dollarlik va Turkmanistonning taxminan 500 million dollarlik elektron savdo hajmiga nisbatan pastroq bo'lsa-da, O'zbekistonda elektron tijoratning yillik o'sish sur'ati 40–45 foizni tashkil etib, Markaziy Osiyodagi eng yuqori natijalardan biri sifatida qayd etilgan. Elektron tijoratning chakana savdodagi ulushining 2,2 foizga oshgani esa bozor endigina shakllanayotganini, biroq o'sish imkoniyatlari nihoyatda yuqori ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 1 million 521 mingta elektron hamyon ro'yxatga olingan bo'lib, ularning umumiy balansidagi mablag' 7 milliard so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar aholining milliy to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, elektron hamyonlar orqali amalga oshirilgan to'lovlarning 74 foizi mobil operator xizmatlariga, 13 foizi internet provayderlariga, 5 foizi esa kommunal xizmatlarga to'g'ri kelgani kuzatilgan. Bu holat elektron to'lov xizmatlari tarkibi hali to'liq diversifikatsiyalanmaganini ko'rsatsa-da, aholining raqamli to'lov madaniyati izchil shakllanib borayotganidan dalolat beradi (1-jadval).


1-jadval. O'zbekistonda elektron tijorat bozorining o'sish tendensiyasi [12]

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2022-yil	O'sish foizi
Elektron tijorat bozori hajmi (mln AQSh dollari)	180	311	+72,7 %
Elektron tijoratning chakana savdodagi ulushi (%)	1,1	2,2	+100 %
Ro'yxatdan o'tgan elektron hamyonlar soni (ming dona)	1 521	2 390	+57 %

Bundan ko'rinib turibdiki, 2020–2022-yillar davomida O'zbekistonda elektron tijorat bozori hajmi o'rtacha yillik 40–45 foiz sur'atda oshgan. Bunday barqaror o'sish, eng avvalo, to'lov tizimlarining modernizatsiyasi, "Humo" va "Uzcard" milliy to'lov tizimlari o'rtasidagi integratsiya, bundan tashqari "Payme", "Click" va "Apelsin" kabi mahalliy to'lov ilovalarining faol kengayishi bilan izohlanadi. Ushbu tizimlar onlayn savdo jarayonlarini tezlashtirib, moliyaviy operatsiyalarni shaffoflashtirish orqali iqtisodiy muomalani rasmiylashtirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Demak, O'zbekistonda elektron tijorat hajmining barqaror o'sishi, asosan, to'lov tizimlari modernizatsiyasi va raqamli to'lov infratuzilmasining kengayishi bilan bog'liq. Biroq to'lov xizmatlarining diversifikatsiyasi pastligi va xalqaro integratsiya darajasining yetarli emasligi bu yo'nalishdagi asosiy cheklavlardan biri bo'lib qolmoqda. [13]

2020–2023-yillar davomida O'zbekistonda elektron to'lovlar hajmi 48 trillion so'mdan 180 trillion so'mgacha oshgan. Bu esa qariyb 3,8 barobar o'sishni anglatib, raqamli moliyaviy infratuzilmaning mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. (1-rasm)




1-rasm. O'zbekistonda elektron to'lovlar hajmining o'sish tendensiyasi (trillion so'm) [14]

2021–2022-yillar oralig'ida "Humo" va "Uzcard" milliy to'lov tizimlari o'rtasidagi integratsiyaning yakunlanishi hamda mobil to'lov ilovalarining ommalashuvi elektron to'lovlar hajmining keskin ortishiga sabab bo'ldi. Ushbu davrda aholi va tadbirkorlik subyektlarining raqamli to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib, tranzaksiyalar soni sezilarli darajada ko'paydi.

2023-yil yakunida elektron to'lovlar hajmining 180 trillion so'mga yetgani milliy to'lov tizimlarining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini yanada kuchaytirdi. Davlat va kommunal xizmatlar uchun onlayn to'lovlar hajmining 2–3 barobar o'sishi aholining raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish madaniyati yuksalayotganini ifodalaydi.

2022-yilda O'zbekiston banklarining onlayn-banking xizmatlari bozorida raqobat muhitining sog'lom shakllanayotgani va raqamli moliyaviy xizmatlarning diversifikatsiyasi kuchaygani kuzatilgan. (2-rasm)



2-rasm. O'zbekiston banklarining 2022-yildagi onlayn-banking xizmatlari bozoridagi ulushi [15]

Tahlil natijalaridan ma'lumki, yirik banklar innovatsion infratuzilma va mobil ilovalar orqali o'z ustunligini saqlab qolgan bo'lsa, kichik banklar moslashuvchan xizmatlar, soddalashtirilgan interfeyslar va qulay tarif siyosati orqali raqobatni kuchaytirgan. Umuman olganda, 2022-yilda O'zbekiston bank tizimida onlayn-banking xizmatlarining rivojlanishi raqamli transformatsiyaning chuqurlashuvi, mijozlar uchun qulay elektron muhit yaratilishi va moliyaviy inklyuziya jarayonlarining jadallashuvi bilan tavsiflanadi. (2-jadval)



2-jadval. O'zbekistonning 2022-yil holatiga elektron tijorat bozorining tarmoqlar bo'yicha tuzilmasi

E-tijorat segmenti	Bozor hajmi (mln AQSh dollari)	Bozor ulushi (%)
Maishiy texnika va elektronika	108	35
Kiyim-kechak va aksessuarlar bozori	59	19
Uy buyumlari va bezaklar	10	3
Oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari	10	3
Sog'liq va go'zallik vositalari	5	2
Boshqa iste'mol mahsulotlari	119	38

Jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, O'zbekistonda raqamli savdo faoliyatining asosiy qismini maishiy texnika va elektronika, kiyim-kechak va aksessuarlar bozori, shuningdek boshqa iste'mol mahsulotlari tashkil etadi. Ushbu uch yo'nalish umumiy elektron tijorat hajmining 90 foizdan ortig'ini egallab, mamlakat elektron tijoratining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari (drayverlari) sifatida namoyon bo'lmoqda.

Eng katta ulush maishiy texnika va elektronika toifasiga to'g'ri kelib, 108 million AQSh dollari yoki 35 foizni tashkil etadi. Ushbu yo'nalishda asosan smartfonlar, noutbuklar, televizorlar va maishiy texnika vositalarining onlayn savdosi ustun. Bu holat aholining raqamli texnologiyalarga qiziqishi ortib borayotganini hamda to'lov tizimlari va logistika infratuzilmasining kengayib borayotganini aks ettiradi.

Kiyim-kechak va aksessuarlar bozori (59 million dollar, 19%) esa elektron tijoratning barqaror o'sayotgan segmentlaridan biri bo'lib, iste'molchilarning qulaylik, vaqt tejallishi va turli brend mahsulotlarga tezkor kirish imkoniyatiga bo'lgan talabini qondirmoqda. Bu yo'nalishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan bir qatorda xalqaro savdo platformalariga ham qiziqish ortmoqda.

Uy buyumlari va bezaklar (3%), oziq-ovqat va ichimliklar (3%), hamda sog'liq va go'zallik vositalari (2%) nisbatan yangi yo'nalishlar hisoblanadi. Ular pandemiyadan keyingi yillarda tez sur'atlarda o'sib, masofaviy xarid madaniyatining shakllanishi va sog'lom turmush tarziga e'tibor ortgani natijasida rivojlanmoqda.

Boshqa iste'mol mahsulotlari toifasi esa 119 million dollar yoki 38 foiz ulush bilan eng katta bozor segmentini tashkil etadi. Ushbu toifa turli tovar guruhlarini qamrab olgan bo'lib, mamlakat elektron tijoratining diversifikatsiyalangan tuzilmasini ifodalaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston elektron tijorat bozori texnologik mahsulotlarga yuqori talab, iste'molchilarning raqamli savdo odatlarining shakllanishi, hamda milliy to'lov tizimlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlab, naqd pulsiz to'lovlar hajmini kengaytirish va "soya iqtisodiyoti" ulushini kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston elektron tijorat bozori so'nggi yillarda jadal rivojlanib, milliy to'lov tizimlarining iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashdagi strategik rolini oshirdi. 2020–2023-yillar davomida elektron to'lovlar hajmi qariyb 3,8 barobar oshib, yoshlar segmentining faol ishtiroki bilan birga milliy to'lov tizimlari modernizatsiyasi, "Humo" va "Uzcard" integratsiyasi hamda mobil to'lov ilovalarining kengayishi elektron tijoratning barqaror o'sishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, elektron to'lov xizmatlarining diversifikatsiyasi pastligi, xalqaro integratsiya darajasining yetarli emasligi va kiberxavfsizlik tahdidlari tizim samaradorligini cheklashda davom etmoqda.

Milliy to'lov tizimlarining samaradorligini oshirish va elektron tijorat hajmini yanada kengaytirish maqsadida bir qator amaliy chora-tadbirlar tavsiya etiladi: birinchidan, elektron to'lov xizmatlarini diversifikatsiya qilish va xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyani rivojlantirish; ikkinchidan, kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish; uchinchidan, hududlarda raqamli to'lov infratuzilmasini teng taqsimlash va aholining elektron to'lov madaniyatini shakllantirish bo'yicha trening va targ'ibot ishlarini kengaytirish. Shu yo'l bilan milliy to'lov tizimlari iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda yanada samarali rol o'ynashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida" O'RQ-578-son qonuni. <https://lex.uz/docs/-4575786>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-fevraldagi "Elektron to'lov tizimlari xizmatlaridan foydalanishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 117-sonli qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7416182>



3. Benfratello, L. (2019). The Digital Payment Industry [Master's thesis, Politecnico di Torino]. Webthesis — Institutional Repository. <https://webthesis.biblio.polito.it/>
4. <https://www.igi-global.com/gateway/chapter/235899>
5. Kasri, R. A., Indrastomo, B. S., Hendranastiti, N. D., & Prasetyo, M. B. (2022). Digital payment and banking stability in emerging economy with dual banking system. Heliyon, 8(11), e11198. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2022.e11198>
6. Khan, B. (2020). A compendious study of online payment systems. International Journal of Scientific Research in Engineering and Management, 4(6), 1–6. <https://doi.org/10.55041/IJSREM11202>
7. Valiyev, J. "Enhancing the Payment System in Uzbekistan" // Journal of Regional Economic and Social Development. – 2024. – №16.
8. Kenjaev, M. "National payment system of the Republic of Uzbekistan and its prospects" // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T.5, №5. B.1607–1611.
9. Davronov, O. B. (2021). Elektron tijoratda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash: milliy qonunchilik va xalqaro tajriba. SHOKH Library / Worldly Journals. <https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/4905>
10. Toxirov, S. (2023). Elektron to'lov xavfsizligi: zamonaviy tahdidlar va himoya mexanizmlari. Green Economy and Development. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/7330>
11. Klynveld Peat Marwick Goerdeler (KPMG) Uzbekistan. (2023). Ecommerce in Uzbekistan. KPMG Uzbekistan. <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/uz/pdf/2023/E-commerce-in-Uzbekistan.pdf>
12. Klynveld Peat Marwick Goerdeler (KPMG) Uzbekistan (2023) hisoboti va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022-yilgi hisobotida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra muallif tomonidan tuzildi.
13. Tashmuhamedova, Y. A. (2019). WAYS TO IMPROVE THE ACTIVITIES OF THE SYSTEM OF TAX MANAGEMENT AND ORGANIZATION OF THE WORK OF EMPLOYEES OF THE PUBLIC TAX SERVICE. Theoretical & Applied Science, (3), 538-544.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Payment Systems Report 2020–2023. <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem>
15. <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>